



MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING "PADARKUSH" ASARLARIDA PERSONAJ LISONIY SHAXSINING YARATILISHI

Rayimjonov Sayidolim Madaminjon o'g'li

Oriental universiteti o'qituvchisi

G-mail: sayidolimr@gmail.com, tel.: (93) 401-49-43

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18719367>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15- fevral 2026 yil

Ma'qullandi: 28- fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 21- fevral 2026 yil

KEY WORDS

Behbudiy, 150 yillik yubiley, drama, lisoniy shaxs, lingvopersonologiya, jadid, "Padarkush".

ABSTRACT

Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasida personaj lisoniy shaxsining yaratilish xususiyatlari lingvopersonologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Asarda qahramonlar nutqi orqali ularning ijtimoiy mavqei, ma'naviy dunyosi, dunyoqarashi hamda davr ruhining aks etishi masalalari ochib beriladi. Xususan, personajlarning leksik tanlovi, uslubiy vositalari, dialogik nutq qurilishi va nutqiy strategiyalari ularning individual lisoniy portretini shakllantirishdagi o'rni nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

Tadqiqot natijasida "Padarkush" asarida til vositalari orqali xarakter yaratish, konfliktni kuchaytirish va g'oyaviy mazmunni ifodalash mahorati namoyon bo'lishi asoslab beriladi. Shuningdek, Behbudiy dramasi jadid adabiyoti doirasida yangi o'zbek adabiy tilining shakllanish jarayonini aks ettiruvchi muhim manba sifatida baholanadi.

Yurtimizda mustaqillik yillarida jadidchilik harakati namoyandalari, xususan, o'z zamonining ijtimoiy-siyosiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan peshqadam arbob, yangi usul maktabi targ'ibotchisi, o'zbek drama san'ati asoschisi, dramaturg, jurnalist, noshir va muharrir Mahmudxo'ja Behbudiy merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbek milliy tilining shakllanishi va taraqqiyotida XX asrning 20–40-yillari muhim bosqich sanaladi. Mazkur davrda yangi o'zbek adabiy tilining rivojlanish asoslari yuzasidan turli qarashlar va ilmiy yondashuvlar ilgari surilgan.

Mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlarning izchil davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-462-sonli qarori qabul qilindi.

Asosiy qism

Badiiy asarni lingvopersonologik aspektida tadqiq etish asar qahramonlarining shaxsiyatini to'laroq tushunishda, shuningdek, yozuvchining badiiy mahoratini ochib berishda

muhim ahamiyatga ega. Dissertatsiya ishimizda o'rganilayotgan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasini ham lingvopersonologik aspektda tadqiq etish asarda yaratilgan turli lisoniy shaxs tiplarini shunday asarlar sirasiga kiradi. Ushbu didaktik ruhda yozilgan dramada jami o'n bitta epizot qatnashgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos personallikni kasb etadi.

Ma'lumki, nutq egalarining ijtimoiy belgisi, xususan, kasb-kori, ish faoliyatida va insonlar o'rtasida egallagan mavqei, oiladagi roli, dunyoqarashi, diniy-ma'rifiy tafakkuri, qaysi millat, dialekt vakili ekanligi nutqidan ham sezilib turadi. Mahmudxo'ja Behbudiy mana shu jihatlarni inobatga olgan holda "Padarkush" dramasida personajlari nutqiga ularning ijtimoiylik belgisini singdira olgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" dramasida yaratgan personajlari nutqi orqali lisoniy shaxslarning quyidagi tiplarini ajratish mumkin:

1. Nutqida kasb-kori, mashg'ulotini namoyon qilgan lisoniy shaxs tipi. Ma'lumki, shaxsning doimiy bajaradigan mashg'uloti, kasb-kori uning tafakkuriga hattoki, so'zlayotgan nutqiga ta'sir etmay qolmaydi. Bu elementlarni personaj nutqiga singdira olishlik ijodkorning chinakam til mahoratidan darak beradi. Asarning markaziy obrazlaridan biri bo'lgan Domulla nutqidan olingan quyidagi parchalarga e'tibor qaratamiz:

Domulla. *"Izzatni nari qo'yduk, agarda o'g'lingizni o'qusangiz, daftaringizni yozar, namozingizni va musulmonchiligini yaxshi bilur va ham sizga savob bo'lur"*.

Berilgan matnlar mazmuni hamda ularda qo'llangan *namoz, musulmonchilik, savob bo'lmoq, zaruriyati diniya, shariat ilmi* diniy terminlari nutq egasining mulla, dramada qayd etilganidek, domullo ekanligidan dalolat beradi.

Quyidagi matnda esa ushbu nutq egasining amali, mashg'uloti haqida yanada to'liq ma'lumot olish mumkin:

Domulla. *"Boy, man sizga amri ma'ruf etdim va menga shariat bo'yicha lozim bo'lgan ishni bo'ynumdan soqit qildim. Inshoolloh, mo'ylab chiqarib, alifni tayoq demayturgan o'g'lungiz holini ko'rarmiz va o'qutmaganingiz uchun gunohkor bo'lursiz"*.

Ushbu matnda qo'llangan *amri ma'ruf etdim, shariat bo'yicha lozim bo'lgan ishni bo'ynumdan soqit qildim, o'qutmaganingiz uchun gunohkor bo'lursiz* jumalari nutq egasining kasb-kori haqida ma'lumot beradi.

Asardagi boy obrazining lisoniy shaxsini o'rganish orqali ham nafaqat, qahramonning assasativ tafakkuri, kasb-kori balki, o'sha davrning eng zamonaviy mashg'ulotlari haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

Boy. *Mani xayoling'a dunyoning sababi, izzati — boylik. Oxiratga bo'lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo'lur. Chunonchi, biz ko'ramizki, odamlar boyni mullodan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar ko'paydi. Katta boylar chilen bo'lub, har kim chilennlarni izzat qilur, hatto, ishi tushaturg'onlar chilen molini qimmat olur, azbaski, chilen iltifotiga olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, so'ngra muomiladorlar sinib, mayda-mayda bo'lur, bildingizmi?*

Yuqoridagi matnda boy tilidan aytilgan *dunyoning sababi, boylik, banklar, chilen bo'lub, muomiladorlar* kabi so'zlar doimo birini ikki qilaman deb harakat qiladigan tadbirkorlar nutqiga dalolat qiladi. Shu o'rinda tahli qiladigan bo'lsak, *banklar, chilen bo'lmoq* birliklar Mahmudxo'ja Behbudiy ijod qilgan davt uchun eng zamonaviy, chet tilidan kirib kelgan so'zlar edi. Bundagi *bank* italyancha, *chilen* esa, ruscha so'z bo'lib *chilen* + *bo'lmoq* tarzida ruscha so'zga o'zbekcha so'z qo'shishlik orqali kompazision usulda yangi so'z hosil qilingan.

Shuningdek, dramada nutqiga ko'ra Ziyoli inson lisoniy shaxsi ham yaratilgan. Uning quyidagi nutqi personajni Ziyoli lisoniy shaxsi sifatida tavsiflashga imkon beradi:

Ziyoli. *"Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, eri va asbobi kundan-kun qo'lidan qetgandek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto, dini ham zaif bo'lur. Buning uchun biz musulmonlarni o'qutmoqqa sa'y qilmog'imiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o'qumoqni beshikdan mo'zorigacha bizlarga farz qilgandir. Bu hukm – hukmi shariatdir.*

Matn mazmunidan bilinadiki, nutq egasi ilm egallash, hunarni bo'lishni targ'ib qilgan, komil inson bo'lib etishning muhim omili bilimli bo'lish ekanini tushuntirishga harakat qilgan. Shuningdek uning nutqida qo'llangan *ilm, o'qutmoq, o'qumoq, olimi diniy, olimi zamoniy, mudarris, muallim, talabalar, ilmiy, diniy, arabiy, ruscha o'qub, ulumi diniya, xatm qilmoq, komil mullo* birliklari ham Ziyoli lisoniy shaxsini tasavvur qilishga imkon yaratgan.

Behbudiy shu Ziyoli tilidan Turkiston xalqi uchun ikki yo'nalishdagi olimlar zarur, degan fikrni ilgari suradi. Biri diniy yo'nalishdagi ulamolar bo'lib, ularni *"olimi diniy"*, deb ataydi. Ikkinchisi esa zamonaviy yo'nalishdagi olimlardir. Ularni Mahmudxo'ja Behbudiy *«olimi zamoniy»*, deb ataydi. Ushbu jumlar o'sha davrda so'z birikmalarining struktur qurilishi fors tiliga yaqinlashib ketganligi ko'rsatadi.

Ziyolining quyidagi nutqida uning shaxsi yanada to'liq ochib berilgan:

Ziyoli. *Olimi zamoniy bo'lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyati diniya va o'z millatimiz tilini bilaturg'ondan so'ngra hukumatimizni(ng) nizomli maktablariga bermog kerakdur, ya'ni gimnaziya va shahar maktablarini o'qub tamom qilg'onlaridan so'ng, Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, doktorlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qutmoq lozimdir.*

Darhaqiqat, shuni takidlab o'tish lozimki, Behbudiyning Ziyoli personajiga joylagan musulmoniy xat, zaruriyati diniya, gimnaziya, dorilfunun, doktorlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik kabi birliklar orqali ushbu shaxsni zamonasining eng ilg'or, turli diyorlarda ta'lim ko'rgan, diniy va dunyoviy ilmlardan boxabar odam ekanligi anglashiladi. Shu o'rinda adib Ziyoli personajida domula shaxsidan farqli ravishda unda zamonaviy atamalar ham joylanganini, suhbat davomida dunyoning bir qator rivojlangan davlatlarini sanab o'tishidan jadid kishilari tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bu iboralar alohida olib sharhlanadigan bo'linsa, uning prosuppozitsiyasida ko'plab ma'nolar borligini anglaymiz. Shunday birliklarni gapiruvchi shaxs, albatta, u haqida ma'lumotga ega bo'lishligi shart bo'ladi.

Pristuf (amirona). Hayda, turma, marsh (yo'naladur).

Pristuf so'zi pristav lavozimini anglatuvchi so'z bo'lib, so'zlashuv nutqida fonetik o'zgarishga uchragan. Pristav nutqida qo'llangan «Hayda, turma, marsh» jumlasini nazoratchi lavozimida faoliyat yuritishidan dalolat beradi.

*Pristav*¹ so'zi ruscha *pristavit* so'zidan olingan bo'lib, "qarab, nazorat qilib turish uchun qo'ymoq, tayinlamoq" ma'nosini anglatadi. Bu so'z Chor Rossiyasida kichikroq hududdagi mahalliy polisiya boshlig'ini anglatgan.

¹ <https://uz.wiktionary.org/wiki/pristav>

Mahmudxo'ja Behbudiy pristuf (pristav)lik kasbi egasiga xos bo'lgan nutqni asarga ustalik bilan joylaganki, qisqa, lo'nda va buyruq ohangidagi ushbu jumladan nutq egasining kasb-kori haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin bo'ladi.

2. Nutqida tabaqalanish asosida jamiyatda egallagan ijtimoiy mavqeini namoyon qilgan lisoniy shaxs tipi. Lisoniy shaxsning bu tipi asar personaji Boy obrazi nutqida namoyon bo'lgan. Asardan olingan quyidagi matnga e'tibor qaratamiz:

Boy. *Bu fikringiz g'alat, chunki mani savodim yo'q, bovujud, bu shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman.*

Boy. *Bizni ham boyligimiz izzat qilinadur, hatto, musulmonlar nari tursun, o'rus va armanlar-da izzat qilur.*

Boy. *Shariat ilmini o'qitmoqni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman, azbaski davlatim anga etar.*

Berilgan matnlarda qo'llangan "Mani savodim yo'q, bovujud, bu shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman", "Bizni ham boyligimiz izzat qilinadur..", "Azbaski davlatim anga etar" jummalari nutq egasining jamiyatda boylar deb ataluvchi sinf vakili ekanligiga ishora qiladi.

Quyida berilgan Nor nutqini tahlil qilish orqali uni jamiyatdagi tabaqasi Boy va uning o'g'li Toshmurodga qarama qarshi ekanligi bilinadi.

Nor. (ta'magirlik ila). *Ey, boyvachcha, bizlar-ku, kambag'al. Sizga nima, kissangizdan pul chiqmaydur? Ana boybachchaning holi.*

Nor nutqida keltirilgan "Ey, boyvachcha", "bizlar-ku, kambag'al", "Ana boybachchaning holi" jummalari uning kambag'alligi, garchi Boyning o'g'li bilan bir dasturxonda o'tirsa ham, jamiyatdagi boylarga nisbatan xusumati mavjudligidan dalolat beradi.

3. Nutqida dini haqida ma'lumot beruvchi lisoniy shaxs tipi. "Padarkush" dramasining ijobiy qahramonlaridan biri bo'lgan Ziyoli nutqida qo'llangan "Dini sharifimiz har nav naflik ilm o'qumoqni beshikdan mo'zorigacha bizlarga farz qilgandir. Bu hukm — hukmi shariatdir" jumlasini; Domullo nutqidagi "Boy davlatini Ollohi taolo munda ham ziyoda qilg'ay (fotiha qilur)" duosi nutq egalarining diniy mansublik belgisi, ya'ni musulmon ekanligini ko'rsatadi.

Domulla. *Shariat ilmi va zaruriyati diniyani bilmoq uchun boyvachchani o'qutmoq, albatta, sizg'a lozimdir.*

Boy. *Men o'zim besh vaqt namozni keraklik duolari ila bilurman. O'zim o'rgaturman.*

Boy tomonidan aytilgan "Men o'zim besh vaqt namozni keraklik duolari ila bilurman. O'zim o'rgaturman" jumlasini ham uning qaysi dinga mansubligi haqida ma'lumot beradi.

4. Nutqida oiladagi rolini namoyon qilgan lisoniy shaxs tipi. Asarda Boy nutqida qo'llangan quyidagi jumlar uning ota ekanligini dalillaydi:

Boy. *"Men o'g'lumni o'qutmoqg'a o'ylaganim yo'q", "Ay, domullo! Siz manga tahqiqchimi? O'g'ul maniki, davlat maniki, sizga nima?", "O'g'lim, kim ila borasan?"*

Bu o'rinda o'g'lum, o'g'lim so'zshakllari, o'g'ul maniki gapi ham nutq egasining oilada ota rolini bajarishini ko'rsatishga xizmat qilgan.

Toshmurod nutqdan olingan quyidagi parchalarda esa uning farzand ekanligi aks etgan:

Toshmurod. *"Ota, tomoshag'a boraman, pul bering" "Otamning yotaturg'on uyinda", "Eshikning biri onamning uyindan ochilur, men kirib, hovli tarafidagi eshikni ocharman, so'ngra Tangriqul akam kirar".*

Shuningdek, dramada ona lisoniy shaxsi ham yaratilgan. Drama qahramoni Boyvuchcha nutqidan olingan ushbu parchada ona va xotin lisoniy shaxsi gavdalangan:

Boyvuchcha. *Voy, zolim dastidan! Bu qanday kun edi, voy dod! (Chapak chalar, boy ustiga o'zini tashlar, yuz va sochini yular). He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Qoshki chechakda kesayding! Voy, padarkush! Toshmurod! Voy, dod-ey!*

Boyvuchcha. *Oy, voy-voy bolam! Voy boyim, oh, voy u-u-u!*

Boyvuchcha. *"Dod, **voy bolam! Voy boyim!** Ikkisidan ham ayrildim, erimni mozorga, **bolamni** Sibirga yuboralar! Voy, voy, voy u-u-u!.."*

Matnda qo'llangan *bolam* so'zshakli nutq egasining ona ekanligiga ishora qilsa, *erim* so'zshakli hamda *voy boyim* murojaat birligi nutqning boyning xotiniga tegishliligini anglatadi.

5. Nutqida jinsini namoyon qilgan lisoniy shaxs tipi. Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" dramasida gender jihatdan farqlanuvchi maxsus birliklardan, konnotativ ifodalardan unumli foydalanib, ayol, erkak lisoniy shaxs tiplarini yaratgan. Asardan olingan quyidagi parchaga e'tibor qaratamiz:

Boyvuchcha. *"Voy, zolim dastidan! Bu qanday kun edi, voy dod. He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Koshki chechakda kesayding! Voy, padarkush! Toshmurod! Voy, dod-ey!" ; "Oy, voy-voy bolam! Voy boyim, oh, voy u-u-u!"*

Boyvuchcha. *Dod, **voy bolam!** Voy boyim! Ikkisidan ham ayrildim, erimni mozorga, bolamni Sibirga yuboralar! Voy, voy, voy u-u-u!..*

Ma'lumki, kishilarga xos individual nutqiy qo'llanishlar bunday birliklarning gender farqlanishiga ham xizmat qiladi. Berilgan matnda qo'llangan o'zbek ayollari nutqiga xos *juvonmarg, qon qus, koshki chechakda kesayding* qarg'ishlari uning ayol kishiga mansubligidan dalolat beradi. Shuningdek, matnning intonasion, hissiy-emosional strukturasi, unda ko'plab undov so'zlar, jumladan, *voy dod, voy, dod-ey, oy, voy-voy, oh, voy u-u-u!* kabilarning ishtiroki ham nutqning ayol kishiga taalluqli ekanligini dalillaydi.

Quyidagi nutqiy parchalardan esa nutq egasining erkak kishi ekanini tez payqash mumkin:

Tangriqul. *"Bu oqshom, bilmayman, nima uchun ichkilik meni tishlamaydur: Namozi digardan beri bir dyujina **shishani bo'shatdim. Dayusni pivosi** qulog'imni qizitmadi. To'ldir, ichaylik"*

Nor. *Qo'lingni ber, ey, **nomard**, topding. Bo'ldi.*

Boy. *Xush keldilar, **taqsir**", "So'zlashib o'lturing, taqsir".*

Davlat. *To'xta, nima ekanligini bilarsan. Avval **boyvachchani(ng) salomatligiga ichaylik.***

Ajratib ko'rsatilgan birliklar: *shishani bo'shatdim, dayusni pivosi, ey, nomard, taqsir, boyvachaning salomatligiga ichaylik* gender jihatdan farqlanib, nutq egalarining erkaklar ekaniga ishora qiladi.

6. Nutqida millati, tilini namoyon qilgan lisoniy shaxs tipi. Lisoniy shaxs tiplari shaxsning millati, tili asosida ham farqlanadi. "Padarkush" dramasidagi personaj Lizaning quyidagi nutqi uning millatini anglashga yordam beradi: *Dobriy vechrim!*

Adib ushbu personajni drama boshida *"L i z a — rus xotini, qabiha shaklinda"* deb tanishtiradi. Bu qahramonning millati rusligi va muallif tasvirlaganidek qabiha ya'ni yomon fe'lli ayol ekanligini hisobga olgan holda uning nutqidan turli jargonlar va ruscha so'zlarni keltiradi. Liza obrazida ruscha so'zlar bilan bir qatorda g'arb tiliga xos bo'lgan ushbu nutq ham keltirilgan:

Liza. *Mersi (o'lturar)*.

Butun asarda *Liza* o'z tilidan aytilgan nutq yuqoridagi ikki o'rinda keladi, xolos. Biroq shu orqali ushbu personajni tasavvurda jonlantirish mumkin bo'ladi.

Shuningdek asarda Artun obrazi orqali o'zbek millati bo'lmagan shaxsning nutqi keltirilgan. Bu obraz orqali Mahmudxo'ja Behbudiy noqarqosh til egasining o'zbekcha nutqidagi o'ziga xos jihatlarini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Masalan:

Artun. *Izvinit surushdim-da.*

Mahmudxo'ja Behbudiy Artur obrazini "*Artun — armani mayxonachi*"² deb ta'rif beradi. Shu bilan birga Artur nutqidan uning savodi pastligi, mayxonada hech bir ishdan tap tortmasdan pul ishlab yuruvchi personajni quyidagilardan yanada chuqurroq anglab yetishimiz mumkin.

Artun. *Bah, ne vor, bilursin, Liza banga demishki, o'n besh manasiz banga kishi ko'ndarma. Ha, o'n besh manat-da va faytun pulini-da ver, geyin Nikolayi ko'ndarayum. Liza o'lmasa, boshqasini getirsin, kayfing nechik?*

Yuqorida kelgan ikki obraz millati umuman boshqa bo'lishi bilan uning tilida o'zining asl tili yoki keng qo'llanilayotgan tillarga mansub so'zlar ularning nutqida uchrashi tabiiy. Biroq, quyidagi turkiy millatga xos tili mahalliy til bo'lgan *Davlat* obrazida ham taqlit o'laroq ruscha jumalarning uchrashi asarning badiiy va ekspresiv qiymatini yanada oshirgan. Misol:

Davlat. *Isprizdim, ispasibo, ispasibo, prixal...*

Ushbu so'zlar asli rus tiliga xosdir. Biroq tili talaffuzga moslashmagani uchun ikki unli yonma-yon kelgan so'zlar oldiga *i* unlisini kiritib talaffuz etgan. Bu asli arab tiliga xos bo'lgan qoida ya'ni arab tilida so'z boshida ikki undosh harf bir yerda kelmaydi. Agar shunday holat yuzaga kelsa, uning oldiga *i* yoki *u* unlisi ortirilib talaffuz etiladi. XX asrning ikkinchi choraklarigacha Markaziy Osiyo mintaqasida arab tilini o'rni juda katta bo'lgan. Shu sababdan, o'sha davrda bizlarga chet tillaridan kirib kelgan ikki undosh bilan boshlanuvchi ko'p so'zlar boshiga tilga yengil bo'lishi uchun *i* qo'shi talaffuz qilingan. Masalan:

Снацубо – ucnacубо, смакан – ucmakan kabi so'zlar.

Mahmudxo'ja Behbudiy Artur obraziga millatidan yiroqda bo'lib turli millatga xos bo'lgan urf-odatlarini o'zida jamlagan shaxsiyatni joylaydi. U alida arman millatiga mansub bo'lgan.

Shaxsning qaysi millatga mansubligini nutq egasining madaniyati, urf-odatlari, nutqida qo'llangan maqol-matal, iboralari yordamida ham aniqlash mumkin. Masalan, asarda Boy nutqida qo'llangan quyidagi maqol uning millatiga ishora qiladi: "*Endi bildim, siz ham o'g'lungni o'qut deb mani qisar ekansiz, bugun chap yonim ila turganman, o'ylamagan ishlar oldimdan chiqar, mazmuni – qordan qutulib, yomg'urga uchraymiz*".

Ushbu matnda qo'llangan *qordan qutulib, yomg'urga uchraymiz* maqoli va *chap yonim ila turganman* frazasi nutq egasi bo'lgan Boyning millatiga tavsif berishga xizmat qilgan. Chunki bu kabi barqaror birikmalar qaysidir millarga xos bo'ladi. Uning ayni modeli boshqa tilda topilmaydi balki, muqobilini uchratish mumkin bo'ladi.

Xulosa

Linvopersonologik tahlil orqali ushbu asar matnni tadqiq qilishlik orqali qahramonlarini yanada yaqqolroq ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin bo'ldi. Turli aspektlar ordali ular

² Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. I j. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – B.95.

tiplarga ajratib chiqildi. Bu soha bo'yicha aynan shu kabi sahna uchun mo'ljallangan asarlarni o'rganing unga mos badiiy qahramon rolini tanlashda ham juda manfaat beradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "Padarkush" dramasida personaj lisoniy shaxsi til vositalari orqali izchil va maqsadli ravishda shakllantirilgan. Qahramonlar nutqi ularning ijtimoiy mavqei, ma'naviy qiyofasi va dunyoqarashini ochib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – 357 b.
2. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. J.I.. -Toshkent: Akademnashr, 2021. – 512 b.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Amaliyoti islom (toshbosma inv. 13866,). – Samarqand, 1908. – b 36
4. Rayimjonov, S. (2025). Mahmudxo'ja Behbudiyning "Amaliyoti islom" asarida qo'llangan arabcha diniy terminlar tahlili // Xorijiy tillar tadqiqi va ta'limi muammolari. 146-149. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14875568>
5. Xalq so'zi 19-nashr 25.01.2020 – B. 4
6. Богин Г.И. Современная лингводидактика. – Калинин: Калинин. гос. ун-т, 1980. – 61 с.

INNOVATIVE
ACADEMY